

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 3



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-3>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тўхтасинов Илҳом

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамад

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат

масъул қотиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамад

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабаев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат

отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat

PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Nurmamatova Zarifa Abdiraup qizi IKKI TILDA MULOQOT QILADIGAN BOLALARNING NUTQIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	5
2. O‘tamuradova Malohat ALISHER NAVOIY MEROSI NURBOY JABBOROV TADQIQOTLARIDA.....	9
3. Петросьянц Эрнст Ашотович ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, МОТИВИРОВАННЫЕ ИМЕНАМИ СОБСТВЕННЫМИ ПОЛИТИКОВ В АНГЛОЯЗЫЧНОМ МЕДИАДИСКУРСЕ.....	13
4. Jo‘raqulova Mushtariy Abdumalik qizi O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SPORT TERMINLARINING YASALISH PARALLELIGI TADQIQI.....	23
5. Gulamova Malika Yakubovna O‘ZBEK VA ITALYAN TILLARIDA NUTQIY STRATEGIYALAR VA UNDASH USULLARI.....	27
6. Achilova Ozoda Farxodovna YAPON TILIDAGI MAQOLLARNI O‘ZBEK TILIDA MUQOBILLASHTIRISHDA TAYANILADIGAN OMILLAR.....	32
7. Nematillayevna Zubaydova PROBLEMS RELATED TO THE COMPARATIVE ANALYSIS OF LANGUAGES IN THE DEVELOPMENT OF LINGUISTICS.....	36
8. Насруллаева Тозагуль Сухробовна ПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ЭТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПЕРЕВОДА В РОМАНЕ ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА «ФИНАНСИСТ».....	39
9. Mo‘minova Ma’suma G‘olib qizi SUV LEKSEMASI TAHLILIGA OID QIYOSIY-TARIXIY, SISTEM-STRUKTUR YO‘NALISHDAGI TADQIQOTLAR.....	43
10. Xamrayeva Zebiniso Xaydarovna MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALARNING IYERARXIK VA FUNKSIONAL TIZIM DOIRASIDAGI DERIVATSION VA SEMANTIK TAHLILI.....	53
11. Malika Solieva PHONOLOGY AND CULTURE: LINGUISTIC ASPECTS OF INTERACTION.....	58
12. Kodirova Shaxnoza Abduraxmonovna “MIMIKA, JEST VA BOSH HARAKATLARI KABI NOVERBAL MULOQOTNING QIYOSIY, LINGVOMADANIY TAHLILI.” (YAPONIYA, O‘ZBEKISTON VA BOSHQA MAMLAKATLAR MISOLIDA)...	61
13. Shamuradova Naima Muxtarovna DISCOURSIIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF PROVERBS EXPRESSING VERBAL POLITENESS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	66
14. Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o‘g‘li STENDAL IJODIDA ROMANTIZM VA REALIZMNING TA’SIRI (“Qizil va qora” hamda “Parma monastiri” asarlari misolida).....	70
15. Tashkulova Zarnigor “SHARQ” KONSEPTINI S.MOEM ISHLARIDA REPREZENTATSIYASI XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI..	74
16. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA’MINOTI.....	79
17. Davlatova Hulkaroy Uktamovna TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINING TADQIQI: BOLALAR NUTQI MISOLIDA.....	84

18. ЗулфANOVA Нигина НуриТдиновна СТРУКТУРА ФРЕЙМА «ТВОРЧЕСТВО» ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РОМАНА «А.МЁРДОК «THE BLACK PRINCE».....	93
19. Turakulova Sitora Fazlidinovna JANUBIY KOREYALIK YOZUVCHI KON JIYONNING “BIZNING BAXTLI DAMLARIMIZ” ROMANIDAGI OBRAZLAR RUHIYATI TASVIRI.....	98
20. Nurimbetova Dilnaz Yeshmuratovna "MILLIY TAOM" REALIYALARI VA ULARNING TARIXIY KONTEKSTI.....	104
21. Erkinova Ruxshona O‘tkirovna, Kurbonova Gulnoza Irkinovna YAPON VA JAHON ILMIY-FANTASTIKA (SF) ADABIYOTI QIYOSIY TAHLILI.....	109
22. Qayimova Maftuna Tursunovna OILAVIY MUHITDA QIZLARINING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O‘ZBEKISTONDA).....	114
23. Хасанова Мавлюда Батыралиевна ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННОГО ДИСКУРСА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	117
24. Iskandarova Aybibi Raximbayevna “QIYOMAT” ROMANIDAGI FRAZEMALARNING XOSLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR.....	125
25. Barno Abdusattarovna Mirsharipova PAK VANSO ASARLARINING RUS TILIGA TARJIMALARIGA DOIR.....	134
26. Muslimova Shahnoza Sunnatovna YOM SANSOP HIKOYALARIDA HAYOT VA O‘LIMNING YANGI IFODASI.....	139
27. Anorqulov Sanjar Iskandarovich TILSHUNOSLIKDA TOPONIMIK KONSEPT VA UNING ASOSIY XARAKTERISTIKALARI.....	144
28. Karimboyeva Charos Ikrom qizi SIROJIDDIN SAYYID VA BAXTIYOR GENJEMUROD SHE‘RIYATIDA TUSH OBRAZI.....	148
29. Mirvaliyeva Dildora Anvarovna DAVLAT TILIDAGI AXBOROT USLUBI MATNLARINING ELEKTRON TA‘MINOTI .HUJATCHILIKDA IMLO VA TINISH BELGILARI.....	153
30. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Abdullayeva Nasima Murodullayevna O‘ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSI UCHUN DIALEKTAL SUBKORPUSINI YARATISH MASALALARI.....	157
31. Mirsanov G‘aybullo Qulmurodovich ASPEKTUAL SEMANTIKANING KOGNITIV MAZMUNI.....	166
32. Shamaxmudova Aziza Furkatovna MILLIY XARAKTER VA XUSHMUOMALILIK: ISPAN TIL SOHIBLARI TAFAKKURIDA HURMAT TAMOIYILLARI.....	170
33. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna AGENTIV SINTAKSEMALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	176



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna

O'zbekiston, Samarqand

Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

Shaibonu@mail.ru

AGENTIV SINTAKSEMALARNING NAZARIY ASOSLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.18734121>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada agentiv sintaksemalarning nazariy asoslari, ularning til tizimidagi o'rni va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Agentiv sintaksema — gapda harakatni bajaruvchi shaxs yoki predmetni ifodalovchi sintaktik birlik sifatida qaraladi. Maqolada agentivlik kategoriyasining mohiyati, uning semantik va sintaktik mezonlari, shuningdek, boshqa sintaktik rollar (obyektiv, adresativ, instrumentativ va boshqalar) bilan munosabati izohlanadi. Tilshunoslikdagi agentivlik nazariyalariga qisqacha tarixiy nuqtayi nazardan yondashilib, turli olimlarning qarashlari solishtiriladi. Shuningdek, o'zbek tilidagi agentiv sintaksemalarning shakllanish vositalari ya'ni fe'lning shaxs-son qo'shimchalari, ot birikmalari va predikativ birliklar doirasida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari agentiv sintaksemalarning gap strukturasini tashkil etishdagi markaziy roli va ularning semantik yukini aniqlash hamda matnning kommunikativ mazmunini shakllantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Maqola natijalari sintaksis va semantika sohalarida keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Tilshunoslikda agentivlik sub'ektning faoliyatdagi ishtiroki, harakatni bajaruvchi sifatidagi roli orqali aniqlanadi. Maqola agentivlikning kognitiv grammatika, semantika va ijtimoiy lingvistika bilan uzviy aloqasi, shuningdek, til birliklarining mazmun va shakl jihatdan agentivlikni ifodalash imkoniyatlari batafsil tahlil qiladi. Shu orqali agentiv sintaksemalarning nazariy ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Agentiv sintaksemalar, agentlik, sintaksis, semantika, kognitiv grammatika, performativ tilshunoslik, lingvistik nazariya, til va ijtimoiy faoliyat

Said-Akhmedova Shokhista Nuritdinovna

Lecturer at Samarkand State Institute of Foreign Languages

Shaibonu@mail.ru

THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF AGENTIVE SYNTAXEMES

ANNOTATION

This article analyzes the theoretical foundations of agentive syntaxemes, their place in the language system, and their functional characteristics. An agentive syntaxeme is viewed as a syntactic unit that denotes a person or object performing an action in a sentence. The article explores the essence of the agentivity category, its semantic and syntactic criteria, and its relationship with other syntactic roles (objective, addressee, instrumental, etc.). From a historical perspective, various linguistic theories of agentivity are discussed and compared. The article also examines how agentive syntaxemes are

expressed in the Uzbek language — through verb person-number affixes, noun phrases, and predicative constructions. The research results demonstrate the central role of agentive syntaxemes in structuring sentences, determining their semantic load, and shaping the communicative meaning of a text. The findings serve as a theoretical foundation for further studies in syntax and semantics. In linguistics, agentivity is defined through the subject's participation in an action and its role as the performer. The paper also explores the interrelation of agentivity with cognitive grammar, semantics, and sociolinguistics, as well as the potential of linguistic units to express agentivity both in meaning and form. Thus, the theoretical significance of agentive syntaxemes is substantiated.

Keywords: agentive syntaxes, agency, syntax, semantics, cognitive grammar, performative linguistics, linguistic theory, language and social activity

Саид-Ахмедова Шохиста Нуритдиновна

Узбекистан, Самарканд

Преподаватель Самаркандского государственного
института иностранных языков

Shaibonu@mail.ru

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АГЕНТИВНЫХ СИНТАКСЕМ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются теоретические основы агентивных синтаксем, их место в языковой системе и функциональные особенности. Агентивная синтаксема рассматривается как синтаксическая единица, обозначающая лицо или предмет, совершающий действие в предложении. В статье раскрывается сущность категории агентивности, её семантические и синтаксические признаки, а также соотношение с другими синтаксическими ролями (объективной, адресативной, инструментативной и др.). С исторической точки зрения рассматриваются основные теории агентивности в языкознании и сопоставляются взгляды различных учёных. Кроме того, анализируются средства выражения агентивных синтаксем в узбекском языке — личные и числовые аффиксы глагола, именные сочетания и предикативные конструкции. Результаты исследования показывают центральную роль агентивных синтаксем в построении структуры предложения, их семантическую нагрузку и значение в формировании коммуникативного содержания текста. Выводы статьи служат теоретической основой для дальнейших исследований в области синтаксиса и семантики. В языкознании агентивность определяется через участие субъекта в действии, его роль как исполнителя. В работе подробно анализируются связи агентивности с когнитивной грамматикой, семантикой и социолингвистикой, а также возможности языковых единиц выражать агентивность в плане содержания и формы. Тем самым обосновывается теоретическая значимость агентивных синтаксем.

Ключевые слова: агентивные синтаксемы, агентивность, синтаксис, семантика, когнитивная грамматика, перформативная лингвистика, лингвистическая теория, язык и социальная деятельность

1. Kirish

Tilshunoslikda agentivlik sub'ektning faoliyatdagi rolini ifodalovchi murakkab til fenomeni sifatida o'rganiladi. Agentiv sintaksemalar agentning til ichidagi faol ishtirokini ta'minlaydi, ya'ni ularni sub'yekt sifatida faoliyatni amalga oshiruvchi sifatida ko'rsatadi. Agentivlik nafaqat sintaktik funktsiya, balki semantik va pragmatik qatlamda ham o'zini nomoyon qiladi. Lingvistik nazariyalar uchun ushbu fenomenni o'rganish muhim hisoblanadi va u tilning asosiy ma'noli funktsiyalarini ko'rsatib beradi. Agentivlikning lingvistik tadqiqoti ko'plab sohalarni o'z ichiga oladi: sintaksis, semantika, pragmatika, kognitiv fanlar va ijtimoiy lingvistika shular jumlasidandir. Maqolada agentivlik tushunchasining nazariy asoslari, uning turli yondashuvlar orqali talqini va sintaktik modellari ko'rib chiqiladi. Tilshunoslikda agentivlik (ing. agency) sub'yektning harakatdagi roli,

ya'ni faoliyatni amalga oshiruvchi, nazorat qiluvchi va maqsadga yo'naltiruvchi shaxsning ishtirokini bildiruvchi murakkab kategoriyadir. Bunda til birliklari inson faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, agentiv sintaksemalar orqali bu faol ishtirok grammatik shaklga ega bo'ladi va agentiv konstruktsiyalar sub'yektning harakat manbai sifatidagi mavqeini belgilab beradi. Masalan:

- Avazbek devorni bo'yadi. – bu yerda “Avazbek” agent sifatida harakatni boshlovchi va bajaruvchi hisoblanadi.

- Devor bo'yandi. – bu shaklda agent yashirin, ammo harakat jarayoni mavjuddir. Shundan kelib chiqib, agentivlik — nafaqat grammatik funktsiya, balki semantik va pragmatik jarayon sifatida ham ko'rib chiqilishi kerak.

Zamonaviy tilshunoslikda agentivlik kognitiv model, ijtimoiy rol va tilning performativ xususiyatlarini birlashtiruvchi kategoriya sifatida qaraladi.

2. Agentlik tushunchasining lingvistik va nazariy ildizlari

Agentlik tushunchasi lingvistika tarixida muhim o'rin tutadi. Noam Chomsky (1965) sintaktik nazariyada agentni faollik ko'rsatuvchi sub'yekt sifatida izoh berdi. N. Chomskning transformatsion-generativ grammatikasida agent - gapdagi faoliyatni boshlovchi va boshqaruvchi element sifatida o'rganiladi. Chomsky agentlikni sintaksis va semantika o'rtasidagi bog'lanish sifatida ko'rib, uni tilning ichki tuzilishida markaziy rolga ega deb hisoblaydi. Fillmore (1968) esa agentlikni “case grammar” doirasida o'rganib, agentiv rolni holatlar (case) orqali aniqlashga e'tibor qaratadi. Fillmorening “The Case for Case” maqolasida agent, odatda, nominativ holatda ifodalaydi va bu holat uning faol sub'yekt ekanligini ifodalaydi. Fillmore agentivlikni semantik rol sifatida ko'radi va uni sintaktik struktura bilan bog'laydi, bu esa agentiv sintaksemalarning ko'p qatlamli tabiatini ko'rsatib beradi. Langacker (1987) kognitiv grammatika asoschisi bo'lib, u agentivlikni sub'yektning kognitiv faoliyati bilan bog'lab tahlil qiladi va agentiv sintaksemalarni nafaqat sintaktik, balki kognitiv va semantik jihatdan ham tahlil qiladi. Langackerga ko'ra, agentlik - bu faollik va irodani anglatadi, u til birliklarida o'z aksini topadi deb ko'rsatib beradi. Talmy (2000) kognitiv semantika nuqtai nazaridan agentiv konstruktsiyalarni faoliyatning tushunilishi va uning semantik ifodasi sifatida qaraydi va til va kognitsiya o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidlaydi va agentivlikni kognitiv jarayonlar bilan bog'lab tahlil qiladi.

3. Agentiv sintaksemalarning strukturalari va turlari

Agentiv sintaksemalar til strukturasining turli darajalarida ifodalanadi: so'z, fraza, gap va undan yuqori tuzilmalarda o'z aksini topadi. Agentivlik sub'yektning faoliyatga oid rollarini sintaktik jihatdan ko'rsatadi. Agentiv sintaksemalar quyidagi turlarga bo'linadi:

Oddiy agentiv konstruktsiyalar - unda agent sub'yekt sifatida faoliyatni to'g'ridan-to'g'ri bajaruvchi sifatida ko'rsatib beriladi. Misol uchun, “Ali kitob o'qiyapti” gapida “Ali” agent sifatida faol sub'yekt hisoblanadi.

Passiv agentiv konstruktsiyalar - bunda agent faoliyatni bajaruvchi bo'lsa-da, gapda u yashirilgan yoki ikkinchi darajaga o'tgan bo'ladi. Masalan, “Kitob o'qilmoqda” gapida agent aniq ko'rsatilmagan, ammo faoliyat bajarilmoqda.

Agentiv frazal konstruktsiyalar - agentlik fraza orqali ifodalanadi, masalan, “Ali tomonidan kitob o'qildi” kabi tuzilmalar bunga yaqqol misol bo'ladi.

Langacker (1987) agentivlikni til birliklarining kognitiv modeli sifatida ko'rib, agent sub'yektning faoliyatga oid niyatlarini, xatti-harakatlarini va ularning til orqali qanday aks etishini o'rganadi. Talmy (2000) esa agentivlikni til va fikr o'rtasidagi murakkab munosabat sifatida tahlil qiladi.

4. Judith Butler nazariyasida agentivlikning performativ tabiati

Amerikalik faylasuf va tilshunos Judith Butler o'zining mashhur “Excitable Speech: A Politics of the Performative” (1997) asarida tilni faqat muloqot vositasi emas, balki ijtimoiy kuchni amalga oshiruvchi vosita sifatida talqin qiladi. (Butler, J., 1997; B. 55). Uning fikricha, har bir nutq harakati (speech act) sub'yektning ijtimoiy mavjudligini yaratadi va uni tan oladi yoki cheklab turadi. Butlarning agentivlik haqidagi asosiy g'oyasi shundan iboratki, til sub'yektni shakllantiradi, lekin ayni paytda unga ijtimoiy kuch beradi hamda inson til orqali o'z mavjudligini bildiradi, o'zini ijtimoiy tizimda “agent” sifatida as ettiradi. Masalan, quyidagi iboralarni olaylik:

- 1) “Men seni direktor deb e’lon qilaman.”
- 2) “Men sizni boshliq etib tayinlayman.”
- 3) “Men bu mas’uliyatni o’z zimmamga olaman.”

Bu gaplarda so’zlovchi (agent) faqat ma’lumot bermayapti — u amalni bajarayotganini ham ko’rish mumkin. Bunda esa til real ijtimoiy o’zgarish keltirib chiqaradi: lavozim qonuniylashadi, lavozim belgilanadi, mas’uliyat shakllanadi. Shu bois bu jarayonlar performativ aktlar deb yuritiladi. Butlarga ko’ra, har qanday nutq harakati ijtimoiy tizimda mavjud bo’lgan normativ kuch orqali shakllanadi. Ya’ni, insonning agentligi (agentivligi) doimo jamiyatdagi til qoidalari, ijtimoiy rollar va madaniy me’yorlar bilan cheklanadi. Misol uchun, “Men seni prezident etib tayinlayman” degan ibora har kim tomonidan aytilganda bir xil kuchga ega bo’lmaydi — bu faqat vakolatli shaxs (masalan, parlament raisi yoki saylov komissiyasi) tomonidan aytilganida haqiqiy ijtimoiy ta’sirga ega bo’ladi. Demak, agentivlik tilning o’zida mavjud bo’lgan ijtimoiy legitimlik bilan bog’liq. Butlarning bu yondashuvi agentivlikni til orqali kuch va mas’uliyatni amalga oshirish vositasi sifatida ko’rsatadi. Nutq — bu faqat ifoda emas, balki ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy o’zgarishning boshlanishi.

Michel Foucault qarashlarida agentivlik va qudrat munosabatlari

Fransuz faylasufi Michel Foucault til, bilim va qudrat (mavqe, hukmronlik) o’rtasidagi murakkab bog’liqlikni o’rgangan va uning fikricha, til ijtimoiy qudratni shakllantiruvchi va uni uzluksiz takrorlovchi tizim hisoblanadi. Shaxsning agentivligi — bu qudratning bir shaklidir, ya’ni inson til orqali boshqaradi va boshqariladi. Foucaultning “Power/Knowledge” (1980) asarida til faqat axborot uzatuvchi emas, balki ijtimoiy tartibni yaratadigan mexanizm sifatida ko’rsatiladi. U shunday deydi: “Har bir bilim turi qudratni o’z ichiga oladi, har bir qudrat esa bilim orqali amalga oshadi.” (Foucault, M., 1980. B. 65). Bu fikr agentivlikni ham o’z ichiga oladi. Chunki inson (agent) ijtimoiy tizimda o’z fikrini ifodalash, buyruq berish, o’rgatish, ta’sir o’tkazish jarayonida til orqali qudratni amalga oshiradi.

Masalan:

- 1) “O’quvchilar bugun darsga ertaroq kelishadi.”
- 2) “Bu hudud ochiq.”
- 3) “Bu haqda gapirish taqiqlanadi.”

Bunday iboralar faqat axborot beruvchi emas, balki ijtimoiy nazorat vositasi sifatida ham ishlaydi. Til bu yerda qudratning tashuvchisiga aylangan. Shu sababli agentivlik Foucault nazariyasida ijtimoiy intizom va hukmronlik bilan uzviy bog’liq hisoblanadi. Shuningdek, Foucault agentivlikni faqat hukmronlik bilan emas, balki qarshilik (resistance) bilan ham bog’laydi. Inson til orqali nafaqat buyruq beradi, balki unga qarshi turadi, o’z fikrini himoya qiladi. Masalan:

- 1) “Biz bu buyruqqa qo’shilmaymiz.”
- 2) “Ular buni o’zgartirishadi.”

Bu misollar agentivlikning ijtimoiy qarshilik kuchi sifatidagi jihatini yoritadi. Demak, til ijtimoiy boshqaruvni ham, ijtimoiy ozodlikni ham amalga oshiradi — bu ikki tomonlama performativ kuchdir.

O’zbek tilida agentivlikning ijtimoiy ifodasi

O’zbek tilida agentivlik masalasi milliy madaniyat, ijtimoiy struktura va til madaniyatiga xos jihatlar bilan uyg’unlashgan holda namoyon bo’ladi. O’zbek tili tarixan hurmat va jamoaviylik tamoyillariga asoslangan, bu esa agentivlikning ifodalanish usullariga ham ta’sir ko’rsatadi. O’zbek tilshunosi Bozorov (2012) o’z tadqiqotlarida turkiy tillarda agentiv sintaksemalarning o’ziga xos grammatik xususiyatlarini tahlil qilgan va u agentivlikni sub’yektning faol ishtiroki asosida aniqlaydi va o’zbek tilidagi agentiv tuzilmalarni bir necha turga ajratadi:

- 1) Ochiq agentli tuzilma: “Sevara maktub yozdi.”
- 2) Yashirin agentli tuzilma: “Maktub yozildi.”
- 3) Frazal agentli tuzilma: “Maktub Sevara tomonidan yozildi.”

Bozorovning fikricha, o’zbek tilida agentivlik nafaqat grammatik darajada, balki madaniy kontekstda ham namoyon bo’ladi. Masalan, “buyruq berdi”, “duo qildi”, “nasihat qildi”, “farzandini o’qitdi” kabi iboralarda agent faqat harakatni bajarmaydi, balki ijtimoiy mas’uliyatni ham o’z

zimmasiga oladi. Shuningdek, o'zbek tili nutqida agentning yashirilishi ko'pincha odob va ijtimoiy kamtarlik belgisidir. Masalan:

- 1) "Xat yozildi." (Agentni aytmaslik — o'zini bo'rttirmaslik, kamtarlik belgisi)
- 2) "Shunday qaror qabul qilindi." (Jamoaviy agentivlik, mas'uliyatni umumlashtirish)

Bu jihatlar o'zbek tili va madaniyatida agentivlikning ijtimoiy-axloqiy o'lchovi mavjudligini ko'rsatib turadi. Bu yerda til faqat ifoda emas, balki jamiyat qadriyatlarini ifodalovchi vosita hisoblanadi.

5. Agentivlik va performativlikning o'zaro bog'liqligi

Agentivlik va performativlik bir-birini to'ldiruvchi tushunchalar hisoblanadi. Agent — bu harakatni amalga oshiruvchi sub'yekt, performativlik esa bu harakatning til orqali real voqelikka aylanish jarayonidir. Masalan:

- 1) "Men seni ozod qilaman."
- 2) "Men bu qonunni bekor qilaman."
- 3) "Men bugundan boshlab ishni boshlayman."

Bu gaplarda so'zlovchi agent sifatida faqat niyat bildirmaydi, balki til orqali real natijani amalga oshirishi ma'lum. Shu sababdan, agentivlikning performativ o'lchovi tilning amalga oshiruvchi qudrati bilan belgilanadi. Bunda Judith Butler tilning performativ kuchi insonni ijtimoiy mavjudotga aylantirishini tushuntiradi, Foucault esa bu kuchni qudrat va bilim bilan bog'lab ko'rsatadi. Shunday qilib, agentivlik tilda nafaqat grammatik kategoriya, balki ijtimoiy faoliyatni amalga oshiruvchi kuch sifatida mavjud.

Xulosa

Agentiv sintaksemalar tilshunoslikda sub'yektning faoliyatini ifodalovchi, murakkab va ko'p qirrali lingvistik birliklar hisoblanadi. Ular agentlik tushunchasining sintaktik, semantik, kognitiv va ijtimoiy jihatlarini o'zida jamlagan. Ushbu maqolada agentiv sintaksemalarning nazariy asoslari, ularning turli nazariy yondashuvlardagi ta'rifi va tilshunoslikdagi roli tahlil qilindi. Kelajakda agentivlikni yanada kengroq o'rganish lingvistik nazariyalarni boyitish va tilni yanada chuqur tushunishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, MA: MIT Press, 1965. – P. 150.
2. Fillmore C. J. The Case for Case. In: Bach & Harms (eds.), Universals in Linguistic Theory. 1968. – P. 196.
3. Langacker R. W. Foundations of Cognitive Grammar. Vol. I. Stanford: Stanford University Press, 1987. – P. 250.
4. Talmy L. Toward a Cognitive Semantics. Cambridge, MA: MIT Press, 2000. – P. 243.
5. Butler J. Excitable Speech: A Politics of the Performative. London: Routledge, 1997. – P. 186.
6. Foucault M. Power/Knowledge: Selected Interviews and Other Writings. New York: Pantheon Books, 1980. – P. 312.
7. Bozorov A. O'zbek tilining sintaksis tizimi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2012.
8. Saidahmadova S. Communicative and Cognitive Features of Art Discourse. In: Conference Proceedings "Fostering Your Research Spirit", 2024. – P. 316–318.
9. Nuiritdinovna S.-A. S. Teaching Grammar: Deductive Vs. Inductive Approaches in Education. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 4(3), 2025. – P. 281–283.



ISSN 2181-9297

Doi Journal 10.26739/2181-9297

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000